

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Kasb talimi(Informatika va AT) kafedrası

**NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey dinamik Web
saytini yaratish**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar_____dots. S.Xashimov

Namangan – 2016

Mundarija

Kirish	4
1-bob. Web saytlar yaratuvchi CMSlar va dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili	6
1.1. Web saytlar yaratuvchi CMSlar bo`yicha mavjud tizimlar va ularning ustivor yo`nalishlari tahlili	6
1.2. Web saytlar yaratishda statik va dinamik sayt tushunchasi	9
1.3. Qo`yilgan masalaning dolzarbligi va uning amaliy ahamiyati	10
2-bob. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey bo`yicha Web sayt yaratish	11
2.1. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey boshlang`ich ma`lumotlarini shakllantirish	11
2.2. Web sayt yaratish va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari	13
2.3. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey Web sayt yaratish texnologiyasini ishlab chiqish	14
2.4. Yaratilgan saytdan foydalanish yo`riqnomasini ishlab chiqish	15
3-bob. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey Web saytni o`rnatish va samaradorligini baholash	Ошибка! Закладка не определена.
3.1. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey Web saytni o`rnatish	Ошибка! Закладка не определена.
3.2. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey Web sayti samaradorligini baholash	Ошибка! Закладка не определена.
3.3. Web sayt yaratish mavzusi bo`yicha amaliy dars ishlanma yaratish	16
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	19
4.1. Web sayt yaratishda kompyuterdan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish	

4.2. Dasturiy ta`minot yaratishda elektr havfsizligi.....	21
Xulosa.....	24
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	25
Ilova.....	26

Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarining joriy qilinishi yosh avlodning intellektual rivojlanishi hamda jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy modernizatsiya qilishning asosiy faktori va muhim sharti hisoblanadi. Respublikamizda mustaqillik yillarida ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishda ulkan natijalarga erishildi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mamlakatimizni jahon axborot makoni bilan integratsiyasiga yunaltilgan axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati aniq belgilab quyilgan. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ushbu jarayonning yanada yangi kuch bilan rivojlanishi jarayoniga zamin bo'ldi.

Prezidentimiz o'z chiqishlarida respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida AKTni joriy etishning dolzarbligini bir necha bora ta'kidlab o'tgan. Xususan, Prezidentning 2012 yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yunalishi bo'yicha "Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalar va chora-tadbirlarni jadallik bilan amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Biz tubdan o'zgarishlarsiz, ya'ni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini iqtisodiyotning barcha tarmog'ida keng joriy qilish yo'lida portlash bilan oldinga siljishlarsiz kundalik hayotimizning istiqbolini ko'rishimiz qiyin. Biz qisqa muddatlarda axborot xizmatini ko'rsatishning turli ko'rinishlari bo'yicha oqsayotgan joylarni nafaqat bartaraf etishimiz, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori darajada joriy qiluvchi ilgor davlatlar qatoriga chiqishimiz kerak..." - kabi fikrlari bilan oldimizdagi vazifalarni qat'iy belgilab bergan.

Ta'lim tizimidagi chuqur va keng ko'lamli islohotlarning mazmuni va amalga oshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish» lozim.

O'zbekiston Respublikasi shakllanayotgan global axborot jamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hukumatimiz tomonidan respublikamizda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari belgilandi.

Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyat ta'minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavydalanadi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini yanada oshiradi, o'z navbatida o'qituvchini ham, talabani ham ijodiy izlanishga undaydi. Bunda o'qituvchiga o'quv jarayonida tashkil etishda mavjud elektron adabiyotlardan, mul'timedia vositalaridan, o'rgatuvchi dasturiy ta'minotlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanishi talabaga mavzu haqida ko'proq ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda har bir mutaxassisdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini bilish va uni amaliyotga qo'llay olish talab qilinmoqda.

Bitiruv ishi mavzusining dolzarbligi: Hozirgi kunda web-dasturlash tillarini yaxshi o'zlashtirish uchun yaxshi esda saqlash qobiliyati, aniq fikrlash, aqliy fikrlashning yuqoriligi muhim masala sanaladi. Ammo insonlar dunyoqarashining har-xilliligi intellekt va bilish jarayonlarining o'ziga xos bo'lishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey dinamik Web sayтини yaratish mavzusi bo'yicha tayyorlangan malakaviy bitiruv ishi asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan. Bular, kirish, asosiy qism, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida O'zbekiston respublikasining ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, internetning tarkibiy qismlari av resurslari xaqida umumiy tushunchalar, mavzuning dolzarbligi hamda bitiruv malakaviy ishining tuzilishi bo'yicha zaruriy ma'lumotlar keltirib o'tiladi. NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey dinamik Web sayтини yaratishning samaradorligi, shuningdek ma'lumotlarni ma'lum bir strukturaga solish bosqichlari, ularni ishlab chiqish va tanlash, akademik lisey haqida ma'lumot beruvchi sahifalarni yaratish bo'yicha fikrlar, ma'lumotlarni qayta ishlashni faollashtirishda elektron sahifaning ahamiyati va ularning tarkibiy qismlari, akademik lisey faoliyati to'g'risida fikr yuritiladi. Mavzuning dolzarbligi, uning bugungi kun nuqtai nazaridan talqin qilinib, uning haqiqatda dolzarb masala masala ekanligi asoslab beriladi.

Asosiy qism esa, unda axborot texnologiyalari asosida elektron Web saxifalarni yaratish bosqichlari xakida, elektron Web sahifa yaratish uchun kompyuterning texnik ta'minotiga talablar, Web saxifani yaratish uchun foydalaniladigan dasturiy ta'minotlar, Web sayt yaratishda foydalaniladigan asosiy manbalar va ularning tahlili, NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey xakida asosiy ma'lumotlar, akademik liseyning boshqaruv strukturasi, akademik liseyda olib borilayotgan ma'naviy va ma'rifiy ishlar, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish jarayoni, Web saxifani yaratish texnologiyasini ishlab chiqish, yaratilgan elektron sahifani sinovdan o'tkazish va tahlil qilish, Web saxifadan foydalanish yuriknomasi, Web saytlarni yaratishni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish, Web sayt yaratish mavzusini o'qitishni amaliy dars ssenariysi, yaratilgan Web saxifani iktisodiy samaradorligi va tannarxini hisoblash keltirib o'tiladi.

Hayot faoliyati havfsizligi bo'limlarida o'quv xonalarida hayot faoliyati havfsizligi masalalari va dasturdan foydalanuvchilar uchun maxsus mehnat sharoitlarini yaratish masalalari qarab o'tiladi. SHuningdek, umumiy tahlillari keltirib o'tiladi.

Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo'limlarida esa, bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha umumiy xulosalar, takliflar va ishini bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar hamda tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar keltirib o'tiladi.

Malakaviy bitiruv ishining izoh bo'limida yaratilgan Web saytning dastur matni keltirib o'tiladi. SHuningdek, shu mavzuga tegishli bo'lgan internet ma'lumotlari ham keltirib o'tiladi.

1-bob. Web saytlar yaratuvchi CMSlar va dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili

Ushbu bobda Web saytlar yaratuvchi CMSlar va dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili sifatida Web saytlar yaratuvchi CMSlar bo'yicha mavjud tizimlar va ularning ustivor yo'nalishlari hamda Web saytlar yaratishda statik va dinamik sayt tushunchasi to'liq ochib beriladi. SHuningdek, qo'yilgan masalaning dolzarbligi va uning amaliy ahamiyati keltirib o'tiladi.

1.1. Web saytlar yaratuvchi CMSlar bo'yicha mavjud tizimlar va ularning ustivor yo'nalishlari tahlili

Barchamizga ma'lumki, butunjahon tarmog'idagi veb-sahifalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu holat O'zbekistonda, ya'ni Uznetda ham jadallik bilan amalga oshmoqda. Kimdir o'z shaxsiy sahifasini yaratsa, kompaniya va firmalar korporativ saytlarini yaratmoqda. Yana kimdir o'z kundaliklarini, ya'ni bloglarini olib boradilar.

Shu bilan birga, yirik portallar faoliyati ham rivojlanmoqda. Bularning hammasi esa biror dasturiy vosita yordamida yaratiladi. Kimdir HTML tilida, kimdir PHP da, yana kimlardir CMS deb ataluvchi tizimlar yordamida veb-saytlarni yaratmoqda. Xo'sh, CMS degani o'zi nima? Bu tizimni nima ekanini tushunish uchun, keling, avvalo, veb-sahifalar qanday yaratilishi haqida bilib olamiz.

1989-yilda Tim Berners-Li tomonidan World Wide Web, ya'ni Bununjahon o'rgimchak to'ri ixtiro qilinganidan boshlab uning har bir foydalanuvchisi oddiy bo'lsa-da, o'z veb-sahifasini yarata olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Lekin, buning uchun HTML (Hyper Text Markup Language) tilini bilish shart edi. Turli xil IT-kompaniyalari tomonidan bu ishni osonlashtiruvchi bir qancha dasturiy paketlar, jumladan Adobe Dreamweaver va Microsoft FrontPage kabilar yaratildi. Bunday dasturlardan ba'zilar sayt yaratishning barcha bosqichlarini (HTML-kodni yozishdan bu kodni serverga yuklashgacha) boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, ko'pgina hollarda (aynan oddiy sahifalarni yaratishda) foydalanuvchi bu kodni bilishi shart bo'lmagan. Sababi bu dasturlarda veb-sahifalarni yaratishning vizual usullaridan foydalanilgan.

HTML-redaktorlarining barcha afzalliklariga qaramay, saytni boshqarish vaqt o'tgani sayin va yangi ma'lumotlar qo'shilishi bilan qiyinlashib boraverdi. Chunki axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan veb-saytlar ham rivojlanib bordi. Sayt xaritasini yaratishdek oddiy funksiyani qo'shish uchun ham veb-yaratuvchilar tomonidan ancha-muncha mehnat talab etilar edi. Axir buning uchun barcha ilovalarni ko'rib chiqish, sahifalar orasidagi bog'liqliklarni tekshirish, menyuni yaratish, forumni qo'shish kabi ishlarni bajarish lozim edi. Bu esa doimiy diqqatni va juda ko'p vaqtni talab etardi.


Sayt yangilanishi muammosini, ya'ni yangilanishning avtomatlashtirishini hal qilish maqsadida yirik axborot kompaniyalari, jumladan, Newsweek va Time yangi dasturiy ta'minot yaratish ishlarini boshlashga majbur bo'ladi. Bu dasturiy ta'minotlar kontentni (ma'lumotlarni) boshqarish tizimlari (CMS – Content Management System) deb ataldi.

Endi savol tug'ilishi mumkin: oddiy HTML kodida yozilgan sahifa bilan CMS nimasi bilan farq qiladi? Avvalombor, HTML da yozilgan sayt statik holda bo'lsa, zamonaviy saytlar dinamik ko'rinishga ega.

Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, page.html sahifasiga murojaat qildi deylik. Veb-server o'zidagi veb-sahifalar katalogini ko'rib chiqadi va agar page.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi xabarni ("Fayl topilmadi") yetkazadi.

Dinamik sayt esa biroz boshqacha ishlaydi. Foydalanuvchi biror sahifaga murojaat qiladi, biroq bu murojaat diskdagi aniq bir faylga emas, balki sayt dvijokiga (agar dvijok PHP tilida yozilgan bo'lsa, odatda bu fayl index.php bo'ladi) qaratilgan bo'ladi. Dvijok foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni biror manbadan (masalan, ma'lumotlar bazasi yoki diskdagi fayldan) oladi, uni HTML-sahifaga aylantiradi va veb-serverga uzatadi, u esa o'z navbatida, foydalanuvchi brauzeriga jo'natadi.


Unda yana bir savol tug'iladi: agar bitta faylnigina so'rab, uni brauzerga uzatish mumkin bo'lsa, buncha murakkablashtirishning o'zi nimaga kerak? Shuning uchunki, bu saytni boshqarish qulay bo'lsin. Aytaylik, siz 100 sahifalik (bu unchalik ko'p emas) oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-kech siz bu sayt dizaynini, ko'rinishini o'zgartirmoqchi bo'lasiz. U holda esa siz shu 100 sahifani qo'lda o'zgartirib chiqishingizga to'g'ri keladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu 100 sahifani kompyuteringizdagi lokal serverga yuklab olishingiz, undan so'ng tahrirlab, kerakli o'zgartirishlarni kiritishingiz va oxirida yana serverga yuklashingiz kerak bo'ladi.



Veb-serverning CMS siz holda qanday ishlashi

Ana endi dinamik sayt qanday ishlashini ko'rib chiqaylik. Asosiy voqea – “HTML-sahifani yaratish”. Ya'ni dvijok kontentni – matnli ma'lumotni (u rasm va jadvallar bilan ham bo'lishi mumkin) oladi va uni dizaynga “kiyintiradi”. Demak, saytning dizaynini o'zgartirish uchun siz faqatgina tayyor grafik mavzuni o'rnatishingiz yoki bir-ikkita faylni – sayt shabloni fayllarini o'zgartirishingiz kerak.

CMS tizimi sahifalarni dinamik ko'rinishga keltiradi: ular foydalanuvchi sahifani ko'rmoqchi bo'lgandagina amalda yaratiladi. Bu degani, sahifalar foydalanuvchi tomonidan bevosita ko'rilayotganda yangilanishi yoki o'zgartirilishi mumkin.



Veb-serverning CMS bilan qanday ishlashi

CMS afzalliklari

Bu tizimlarning asosiy jihati shundaki, dinamik veb-sahifalarni oson yarata olish va ularni turli xil axborot bilan to'ldirish imkoniyatini berishdir. CMS tizimlari odatda murakkab bo'lib, ular o'z ichiga xabarlarni tarqatish xizmatlari (RSS), forumlar va internet-do'konlarni oladi. Shu bilan birga, ularni o'zgartirish ham oson.

CMS nafaqat saytdagi turli ma'lumotlarni boshqarishni avtomatlashtiradi, balki shu bilan birga, sayt tuzilishining texnik tomonlari bilan tanish bo'lmaganlar, ya'ni yozuvchi va jurnalistlarga saytda o'z materiallarini bevosita foydalanuvchi interfeysi orqali qo'shish imkoniyatini beradi. Shu narsa tushunarli bo'ldiki, endi foydalanuvchilarga saytda o'z materiallarini ko'rish uchun HTML ni ham, saytdagi ma'lumotlar yangilanishining texnologiyasini ham bilishi shart emas.

CMS tizimi, shuningdek, veb-sayt yaratishni turli xil mutaxassislar orasida taqsimlab chiqish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, veb-dizayner o'z diqqatini saytning ko'rinishiga (dizaynni mukammallashtirish va shablonlarni o'rnatishga) qaratib, texnik yo'nalishda bo'lmagan mutaxassislar uni ma'lumotlar (matn, tasvir va animatsiyalar) bilan to'ldirishga harakat qiladi.

Bu ham hammasi emas. Ma'lumki, dvijok – CMS ning bir qismi xolos. U dizayn shabloni asosida sayt ma'lumotlarini chiqarib beradi. Bundan tashqari, CMS da saytdagi ma'lumotlarni boshqarish (ular sayt bo'limlarini va kategoriyalarini yaratishga va ma'lumotlarni ular orasida bo'lib chiqishga imkon beradi) va bu ma'lumotlarni tahrirlash vositalari ham mavjud. Shu bilan birga, foydalanuvchi sayt ma'lumotlari aynan qayerda (ma'lumotlar bazasida, diskda HTML-fayl ko'rinishida yoki umuman tashqi serverda) saqlanayotganini bilishi shart emas.

CMS qo'llanilishi bilan ko'pgina qiyinchiliklar bartaraf etilishi mumkin. Yuqorida misol sifatida ko'rilgan sayt xaritasi ham avtomatik ravishda tuziladi, buning uchun foydalanuvchidan hech qanday mehnat talab etilmaydi. Shu bilan birga, CMS saytdagi qo'shimcha funksiyalarni, masalan, suratlar galereyasi yoki

ro'yxatdan o'tish oynasini qo'llash imkonini beradi – shu kabi funksiyalar CMS kengaytmalari orqali amalga oshiriladi. Faqatgina u yoki bu kengaytmani o'rnatish kerak xolos.

CMS ga o'tishning o'ziga xos qiyinchiliklari

Xo'sh, CMS larning shuncha afzalliklari bo'lganda nima uchun barcha sayt egalari Joomla! yoki Drupal kabi CMS larga otishga intilmayapti? Bunga bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi sabab, inertsia bo'yicha ketish yoki boshqacha aytganda, o'zi bilgan narsaga o'rganib qolish. Inson HTML ni ishlatishga o'rganib qoladi va CMS ga o'tish saytni boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha qancha qulayliklar keltirmasin, biror narsani o'zgartirishni xohlamaydi. HTML dan CMS ga o'tish-yillar ichida amalga oshishi mumkin.

Ikkinchi sabab, mavjud minglab HTML-sahifalarni CMS ma'lumotlar bazasiga moslab o'zgartirish kerak bo'ladi. Aksariyat hollarda buni qo'lda bajarish kerak bo'ladi. Katta sayt uchun bu jarayon ancha ko'p vaqtni oladi, bu esa saytni vaqtinchalik faoliyatining to'xtashiga va balki, kompaniya tomonidan ko'riladigan moliyaviy zararga olib keladi. Albatta, CMS ga o'tish saytni boshqarish bo'yicha ancha vaqt tejalishini hisobga olsa, kelajakda bu o'zini oqlaydi.

Endi, CMS ga o'tishga halaqit beruvchi faqatgina bitta to'siq qoladi – texnik holat. Deyarli barcha zamonaviy CMS ishlashi uchun xostingda PHP interpretatori va MySQL ma'lumotlar bazasi serveri bo'lishi kerak. Besh-olti-yil avval shu kabi funksiyalarni taqdim etuvchi xosting-provayderlar kam edi. Hozirga kelib, vaziyat yaxshi tarafga o'zgardi va PHP hamda MySQL ni qollaydigan xostingni O'zbekistonning o'zida topish qiyinchilik tug'dirmaydi.

1.2. Web saytlar yaratishda statik va dinamik sayt tushunchasi

Sayt – bu internet tarmog’i orqali dunyoning istalgan nuqtasidan kirish mumkin bo’lgan ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Saytlar turli dasturlash tillari (PHP, JavaScript, HTML, Ajax va boshqalar) asosida tashkil etilgan sahifalarda iborat bo’ladi. Bu sahifalarga audio, video, matn, grafik va boshqa turdagi ma’lumotlar joylashtirilishi mumkin. Saytlar, yoki sayt sahifalaridagi ma’lumotlar dinamik (o’zgaruvchan) va statik (o’zgarmas) bo’lishi mumkin. Statik (o’zgarmas) ma’lumotga ega bo’lgan saytlar WYSIWYG (what you see is what you get – nimani ko’ra olsang ana shuni olasan) asosda tashkil etiladi va undagi ma’lumotlar o’zgarmaydi. Masalan, biror shahar haqida statik sayt tayyorlandi, deylik. Bunday holatda saytga ma’lumotlar; shahar tarixi, ko’rkam joylari, manzili va bugungi kundagi holati haqida bir necha sahifali ma’lumotlar yoziladi hamda bu ma’lumotlar o’zgartirilmaydi. Siz saytga kirasiz va faqat ko’rib turgan ma’lumotingiznigina olasiz. Statik saytlarda odatda sayt va foydalanuvchi o’rtasida hech qanday amaliyotaloqa bajarilmaydi.



Dinamik (o’zgaruvchan) saytlarda esa hammasi butunlay boshqacha. Dinamik saytlar va sahifalardagi ma’lumotlar turli usullar bilan o’zgartirilishi, yoki avtomatik tarzda ma’lumotlarning almashinib turishiga asoslangan bo’lishi mumkin. Bunday saytlarda sayt va foydalanuvchi o’rtasidagi amaliyot-aloqa juda yaxshi yo’lga qo’yilgan bo’ladi. Bugungi kundagi saytlarning deyarli barchasi dinamik bo’lib, bu saytlarda foydalanuvchilar saytning asosiy yurituvchi kuchi hisoblanishadi. Dinamik saytga www.odnoklassniki.ru saytni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bilasizki, Odnoklassniki saytidagi deyarli barcha ma’lumotlar foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi, o’zgartiriladi, yangilanadi va hatto o’chirib tashlanadi. Odnoklassniki sahifalaridagi ma’lumotlar to’liq sayt va foydalanuvchi o’rgasidagi amaliyot-aloqaga asoslangan. Ushbu elektron qo’llanma asosida Siz bilan tayyorlamoqchi bo’lgan saytimiz barcha dinamik xossalarni o’zida mujassam etgan bo’ladi.



Siz tayyorlanishidan bir necha qadam yiroqda turganingiz – shaxsiy veb saytingiz WordPress dasturi yordamida tashkil etiladi. Bu dinamik sayt tayyorlash dasturi bugungi kunda shaxsiy bloglar va saytlar tashkil etish dasturlari orasida dunyoda birinchi o’rinda turadi.

Hosting – saytingizning asosini tashkil etuvchi fayllaringiz saqlanadigan joy. Hosting katta hotiraga ega bo'lgan, kuchli serverlarda tashkil etiladi. Hosting xizmatini taklif etuvchi kompaniyalar o'z serverlarida millionlab saytlarning fayllarini saqlaydi va ularga xizmat ko'rsatadi.

Hosting faqat sayt fayllarini saqlash bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning turli amaliyotlar bajarishi uchun zarur bo'lgan muhitni yaratadi, bu muhitning doimiy xatosiz ishlashini nazorat qiladi.

Hosting xizmati narxi saytingiz uchun ajratilayotgan joy, qulayliklar va xizmat sifati kabi bir necha asoslarda baholanadi. O'zbekistondagi barcha hosting xizmati provayderlarini www.hosting-obzor.uz saytidan topishingiz va ularga nisbatan bildirilgan foydalanuvchilarning haqqoniy fikrlari bilan tanishishingiz mumkin. Siz tanlagan host qanchalik yaxshi bo'lsa, saytingizning foydalanuvchilar uchun qulayligi, tez ishlashi va doim internet tarmog'ida bo'lishi ham shunchalik yaxshi bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda hosting xizmati provayderlari tomonidan taqdim etilayotgan eng arzon, eng kichik hajmdagi hosting tarifi – bu oyiga 3 000 so'm evaziga 1 domen va 50 mb joyga ega bo'lgan hosting xizmati hisoblanadi. Serverlari O'zbekiston hududida joylashgan milliy hosting provayderlarimizda saytingizni joylashtirsangiz, saytingiz TAS-IX tarmog'ida hisoblanadi. Bu tarmoqda bo'lishning afzalligi shundaki, agar saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'lsa saytingizdagi har qanday ma'lumot (audio, video, rasm va boshqalar)ni ko'rish, olish va ulardan foydalanish O'zbekistondagi ko'pchilik internet servis provayderlar abonentlari uchun bepul bo'ladi. Ya'ni, UzOnline, TPS kabi kompaniyalar abonentlari saytingizga tashrif buyurishsa, foydalanilgan megabayt uchun ulardan pul olinmaydi. O'z-o'zidan aniqki, saytingiz abonentlar foydalanishi uchun tekin bo'lsa, saytingizga tashrif buyuruvchi foydalanuvchilar soni ham ortadi.

Bugungi kunda internetda serverlari xorijiy davlatlarda bo'lgan internet servis provayderlarining 100% bepul hosting xizmatlarini ko'plab topishingiz mumkin. Bu hosting xizmatlari to'lovli hosting xizmatlaridan hech qaysi jihati bilan farq qilmaydi. Faqat O'zbekiston sharoitida xorijiy hosting va milliy hosting xizmatlaridan foydalanish o'rtasida bittagina tafovvut mavjud: xorijiy bepul hosting xizmatlaridan foydalansangiz saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'lmaydi, milliy provayderlarimiz xizmatlaridan foydalansangiz saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'ladi.

1.3. Qo'yilgan masalaning dolzarbligi va uning amaliy ahamiyati

Ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish va uni amalda joriy etish natijasida dars samaradorligini oshirishga, shuningdek, talabalarni bugungi bozor iqtisodiyot sharoitiga mos bo'lgan kadrlarni tayyorlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, akademik lisey va kasb – hunar kollejlari amalga oshirilayotgan ishlar va yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni internet tarmog'ida yoritib borish ham o'ziga xos alohida ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishida keltirib o'tilgan "NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey dinamik Web saytini yaratish" mavzusi asosida esa, quyidagi masalalarni xal qilish talab kilinadi:

- Web saytlar yaratuvchi CMSlar va dasturiy vositalar haqida mavjud manbalar tahlili
- Web saytlar yaratuvchi CMSlar bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili
- Web saytlar yaratuvchi vositalarning roli va ahamiyati
- Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey bo'yicha Web sayt yaratish
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey boshlang'ich ma'lumotlarini shakllantirish
- Web sayt yaratish va uni o'rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey Web sayt yaratish texnologiyasini ishlab chiqish
- Yaratilgan saytdan foydalanish yo'riqnomasini ishlab chiqish
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey Web saytini o'rnatish va samaradorligini baholash
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey Web saytini o'rnatish
- NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey Web sayti samaradorligini baholash
- Web sayt yaratish mavzusi bo'yicha amaliy dars ishlanma yaratish
- Hayot faoliyati xavfsizligi
- Web sayt yaratishda kompyuterdan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish
- Dasturiy ta'minot yaratishda elektr havfsizligi
- Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha tahliliy fikrlarni keltirib o'tish va bitiruv malakaviy ishi bo'yicha bajarilgan ishdan olingan natijalar bo'yicha xulosani keltirib o'tish talab qilinadi.

Keltirib o'tilgan fikrlardan ko'rinadiki, yangi axborot texnologiyalarini yaratilayotgan web saytlar asosida internet tarmog'ida yoritib borish akademik lisey va kasb-hunar kollejlarning yutuqlarini namoyish etishda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Xususan, bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadini qisqacha aytib o'tadigan bo'lsak, asosiy maqsad NamMPI qoshidagi Do'stlik akademik lisey dinamik Web saytini yaratish va yangi axborot texnologiyalarini qo'llash talab qilinadi.

2-bob. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey bo`yicha Web sayt yaratish

Келтириб ўтилаган битирув малакавий ишининг ушбу бобида NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey bo`yicha Web sayt yaratish, NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey boshlang`ich ma`lumotlarini shakllantirish, Web sayt yaratish va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari keltirib ўтилади. Шунингдек, NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey Web sayt yaratish texnologiyasini ishlab chiqish ҳамда yaratilgan saytdan foydalanish yo`riqnomasini ishlab chiqish vazifalari amalga oshiriladi.

2.1. NamMPI qoshidagi Do`stlik akademik lisey boshlang`ich ma`lumotlarini shakllantirish

НамМПИ қошидаги Дўстлик академик лицейи



Наманган муҳандислик-педагогика институти қошидаги Дўстлик академик лицейи 2000 йилда ташкил этилган. Академик лицей Корея давлати кредити бўйича жиҳозланган.

Таълим муассасасида 48X24 ўлчамли спорт зали, 7 та лингофон, 2 та компьютер синфи, 6 та кимё, физика ва биология ўқув-лаборатория хоналари, 37 та ўқув хоналари, соғлиқни тиклаш ва маънавият-маърифат хонаси ва фаоллар зали мавжуд. Мавжуд компьютерлар тармоқ орқали бири-бирига боғланган бўлиб, улар интернет тармоғига уланган.

Академик лицейнинг ўқувчилар турар жойи 2013 йилда капитал таъмirdан чиқарилган. Узоқ туманлардан келган ўқувчиларнинг деярли барчаси замонавий талабга эга бўлган ётоқхона билан таъминланган. Унинг 2-қаватида 200 нафар ўқувчи ўрнига эга бўлган ошхона мавжуд. Ошхонада барча шароитлар яратилган.

Академик лицейда 4 та (ижтимоий-гуманитар (ўзбек), хорижий филология (ўзбек), аниқ фанлар (техника йўналиши –ўзбек ва рус)

табiiй фанлар (ўзбек)) таълим йўналишлари бўйича таълим-тарбия ишлари олиб борилади.

Ўқувчиларнинг дарсдан бўш вақтларини унумли ва мазмунли ташкил этиш мақсадида 38 та фан, 8 та спорт ва «Бадий хаваскорлик» тўгараклари ҳамда «Заковат», «Нафосат» қизлар клублари ҳамда тил ўргатиш маркази фаолият кўрсатмоқда.

Академик лицейда ахборот-ресурс маркази интернет тармоғига уланган 7 та компьютер жамланмаси, янги авлод адабиётларининг электрон версияси ва 23000 данадан ортиқ анъанавий босма адабиётлар мавжуд.

Охирги йилларида вилоят фан олимпиадасида жами 41 нафар ўқувчилар иштирок этиб, шундан 25 нафари совринли ўринларни эгалади. Вилоят олимпиадаси ғолибларидан 15 нафари Республика босқичида иштирок этиб, юқори натижаларга эришди.

Академик лицей АКШ элчихонасининг "ACCES" кичик грант проекти (Кам таъминланган оила фарзандлари ва етим болаларга инглиз тилини ўргатиш) бўйича иш олиб бормоқда. Ўқувчиларга инглиз тилини ўргатиш бўйича режа асосида дарслар ташкил этилган.

Академик лицей битирувчиларидан ҳар йили 60-70 % и олий ўқув юртларига ўқишга кирмоқдалар. Жумладан ҳозирги кунда чет давлатларда Канадада, Англияда, Японияда, Жанубий Кореяда, Дубайда, Хитойда, Россия, Латвия давлатларида ва Давлатимизда ташкил этилган чет давлат олий ўқув юртларида битирувчилар таҳсил олмоқда.

2.2. Web sayt yaratish va uni o'rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari

Hozirgi davrga kelib, CMS asosiga qurilgan bir qancha tizimlar yaratilgan. Ularga misol qilib, Drupal, PHP-Nuke, WebDirector, Joomla!, NetCat, Slaed, Microsoft CMS, WordPress, PHPShop kabilarni keltirish mumkin. Bu tizimlarning ba'zilar umuman tekin bo'lsa, ba'zilaridan esa haqqini to'labgina foydalanish mumkin.

CMS ni tanlash bir tomondan oson va jo'ndek ko'rinsada, bu juda jiddiy masala. Internetda ularning turli yo'nalishdagi o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa): yuz dollarlab turadiganidan to ochiq kodli bepul turigacha, ma'lum bir sohagagina taalluqlisidan ixtiyoriy murakkablikdagi sayt qurish imkonini beradiganigacha, oson boshqariladiganidan administrator uchun katta qiyinchiliklar keltiradiganigacha turini topishingiz mumkin. Xullas, agar CMS lar bilan ishlash bo'yicha hech qanday tajribangiz bo'lmasa, keraklisini tanlash qiyinlashib ketishi tayin.

Dastlab keling, pullik CMS larni ishlatmaslikka harakat qilamiz. Axir katta pul to'lab, CMS ni ishlatishdan besamara foydalanishga naxojat. Shu yerda bir narsani aytib o'tish kerak: bu bilan o'zimizga qiyin qilamiz. Boshqa tarafdin esa, qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik qiziq bo'lishi aniq, shunday emasmi?

Endi CMS larga yana bir talab qo'yamiz: universallik. Bu degani, biz ishlatmoqchi bo'lgan CMS ixtiyoriy konfiguratsiyadagi kompyuterlarda ham ishlay olishidir. Shuningdek, saytni lokal serverdan haqiqiy serverga ko'chirganimizda yoki bevosita serverning o'zida yaratayotganimizda CMS bilan hech qanday qiyinchiliklar tug'ilmasligi kerak. Bu talabga esa, afsuski, ko'pchilik bepul CMS lar javob bera olmaydi.

Barcha dasturiy ta'minotlarga qo'yiladigan talablardan yana biri – xavfsizlik (axir siz haftalab-oylab yaratgan saytingizni shunchaki qiziqish uchun bir kunda buzishlarini xohlamasangiz kerak?). Shuning uchun CMS larning xavfsizlik darajalari doimiy yangilanib turishi shart.

Natijada, talablarimizga deyarli to'liq javob beradigan quyidagi: PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS tizimlarigina qoladi. Endi ana shu CMS larni batafsilroq ko'rib chiqamiz va o'zimizga kerakli ba'zi xulosalar chiqaramiz.

PHP Nuke. Eng birinchi CMS lardan biri bo'lib, afsuski, ancha vaqtlardan buyon yangilanmay kelmoqda. Biroq, uning kodi ko'plab adashlari uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda (masalan, DotNetNuke, PostNuke). Bu bir-biriga nom jihatidan yaqin bo'lgan tizimlar foydalanuvchi diqqatiga navbatma-navbat chiqib turadi. Funksionallik jihatidan tizim ancha mukammal bo'lib, uning uchun ko'plab qo'shimcha modullar yaratilgan. Masalan, xabarlar lentasi, forum, maqolalar, so'rovlar tashkil qilish, statistika olib borish va boshqalar. Ammo, saytlarning tuzilishi jihatidan bir xillik kuzatiladi. Shu bilan birga, bu tizim yuklanishi qiyin bo'ladi, ya'ni qo'shimcha modullar sahifa yuklanishini sekinlashtiradi. Bu esa ko'plab foydalanuvchilarga yoqmasligi tayin. Yuklanish nafaqat sahifaga, shuningdek, serverga ham tushadi, bu esa xosting xizmatini taqdim etuvchilarga yoqmaydi. Agar sizni shunday vaziyat qoniqtirsa, aynan shu CMS ni tanlashingiz mumkin. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.nukefiles.ru

Drupal. Turli xil o'zgartirishlar orqali o'zimizga moslab olish bo'yicha eng mukammal CMS deb aytish mumkin. Shu yerda shuni aytish kerakki, "Tomchi" (bu tizim nomi ingliz tilidan aynan shunday tarjima qilinadi) aslida, CMS emas, balki "CMS ni tuzuvchi tizim". Uning yordamida siz tayyor bloklardan kerakli CMS ni yig'asiz. Shuni aytish mumkinki, funksionallik va dizayn jihatidan o'zingizni qanoatlaniruvchi CMS ni hosil qilasiz. Standart modullar to'plamiga blog, forum, xabarlar lentasi, fayllarni yuklash, ovoz berish, qidiruv kabilar kiradi. Bunda ko'rinadigan kamchilik bitta: PHP va MySQL ni mukammal bilish lozim. Agar bu qisqartmalarni tushunmagan bo'lsangiz, keyingi CMS ga o'tavering, aks holda esa bu tizimga jiddiyroq e'tibor bering. Rasmiy sayti: www.drupal.org. Texnik yordamni www.drupal.ru saytidan ham olishingiz mumkin.

Slaed CMS. Bugungi kunda ancha ommabop CMS bo'lib, turli xil saytlarda ishlatiladi. Ikki xil varianti mavjud: pullik va tekin (OpenSlaed). Ikkovi ham bitta yadroda qurilgan (bu degani xavfsizlik darajasi bir xil) va faqatgina funksionalligiga ta'sir qiluvchi modullar soni bilan farqlanadi. Bepul variantida biror mavzudagi nisbatan kichik portalni yaratishingiz mumkin. Ammo, bundan ortig'ini emas. Dizayni ham unchalik katta qiyinchiliklarsiz o'zgartirilishi mumkin. Tizim aslida Rossiyada yaratilgani uchun rus tilidagi yordam (slaed.net) haqida qayg'urmasa ham bo'ladi.

Joomla! Bugungi kunda eng mukammal dvijoklardan biri (agar bepullari ichida eng mukammali bo'lmasa) bo'lib, uning uchun shunchalik ko'p qo'shimcha modullar yaratilganki, ular yordamida o'zingizning saytingizga deyarli ixtiyoriy funksionallikni berishingiz mumkin. Bu dizaynga ham tegishli bo'lib, uni o'zgartirish uchun ham juda ko'p shablonlar mavjud. Biroq, bu yerda bir kamchilik ham bor: shablonlar tizimi shunday tuzilganki, sahifalarni yaratish va to'ldirish jarayonida sayt bo'limchalari kichik-kichik qismlar bo'lib, ajralib qolishi mumkin. Ya'ni, bu qismlar jadvallar asosida yaratilgan. Bu esa saytingizga o'z shaxsiy ko'rinish berishingizda bir qator noqulayliklar tug'diradi: yuqorida tilga olingan qismchalar kutilmagan joyda

chiqib qolib, jahlingizni chiqaradi, shuningdek, ularni yo‘qotish uchun vaqtingiz ketadi. Umuman olganda, agar sizni tayyor shablonlar qoniqtirsa (ular esa juda ko‘p va xilma-xil), u holda bu tizim sizga juda mos keladi. Agar siz Joomla! ni tanlab o‘ziga xos original sayt yaratmoqchi bo‘lsangiz ozgina terlashingizga to‘g‘ri keladi. Rasmiy yordam sayti: joomla.org. Shuningdek, ruscha yordamni norasmiy bo‘lsada, ancha yaxshi bo‘lgan joomlaportal.ru va joom.ru saytlaridan ham olishingiz mumkin.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida siz o‘z saytingizni tez va oson ravishda yaratishingiz mumkin. Ammo hech qaysi CMS sizga tayyor holdagi saytni taqdim etmaydi. Buning uchun sizdan harakat va mehnat talab etiladi. Yaratayotgan saytingiz boshqalarnikiga o‘xshamasligi, dizayn jihatdan takrorlanmas va original bo‘lishi uchun esa shaxsiy fantaziyangiz va qobiliyatingizni ishga solishingiz kerak.

2.3. NamMPI qoshidagi Do‘stlik akademik lisey Web sayt yaratish texnologiyasini ishlab chiqish


Юкорида айтиб ўтилганидек, электрон қўлланмани яратишнинг умумий алгоритми сифатида куйидаги боскичларни келтириб ўтишимиз мумкин:

1. Яратиладиган Web саҳифа бўйича зарурий ахборотларни тўплаш.

Бу босқичда берилган мавзу бўйича зарурий ахборотлар тўпланади. Масалан: фаннинг давлат таълим стандарти, фан дастури, ишчи дастури, келандар режаси, маърузалар матни, дарс сценарийси, савол ва топшириқлар тўплами, мустахкамлаш тестлари, видеодарс ишланмалари, фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати, дастурдан фойдаланиш бўйича кўрсатма ҳақидаги маълумотлар бўйича маълумот тўпланади. Бу маълумотларни Word редактори ёрдамида компьютерга киритиб, маълум бир форматга солинади. Шунингдек барча маълумотларни тайёрлаб олинган кейинги босқичга ўтилади.

Яратиладиган Web саҳифанинг умумий структурасини ҳосил қилиш.

Бу босқичда яратиладиган Web сайт учун шаблонларни тайёрланади. Бу шаблонларни саҳифани яратаётган дизайнер ҳамда программистнинг маҳорати билан ҳам боғлаш мумкин. Чунки, дастурий воситаларнинг ўзида ҳам махсус шаблонлар мавжуд бўлиб, бу шаблонлардан фойдаланиш ёки янги шаблон яратиш ҳам мумкин. Қуйида шаблон учун бир нечталарини фрейм ва жавалларни келтириб ўтайлик.



3. Саҳифага тегишли саҳифаларни ўзаро боғлаш.

Бу босқичда ҳар бир яратилган саҳифани бир-бири билан ўзаро боғлаб, саҳифа учун занжир ҳосил қилинади.

4. Саҳифага дизайн бериш бўлими.

Бу босқичда ҳар бир саҳифани дизайн жиҳатдан янада кучайтирилади, қўшимча безаклар берилади.

5. Яратилган Web саҳифани текшириш.

Бу бўлимда яратилган саҳифани назоратдан ўтказиб, ишлаш жараёни текширилади. Бу текширишнинг энг қулай усули бу саҳифани бошқа компьютерда ишлатиб кўриш ва ўзаро боғлиқлигини текшириб чиқиш ҳисобланади.

2.4. Yaratilgan saytdan foydalanish yo`riqnomasini ishlab chiqish

2.5. Web sayt yaratish mavzusi bo'yicha amaliy dars ishlanma yaratish

Дарснинг технологик харитаси

Мавзу: «Интерактив веб-сайтлар».

